

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

APREL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>





ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, aprel

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil).– 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

Do'simov Shohruh

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA TASHQI SAVDONING AHAMIYATI
(XORAZM VILOYATI MISOLIDA) 5-10

FILOLOGIYA FANLARI

Zayniddinova Sevinch

LEKSIKOLOGIYA TUSHUNCHASI VA UNDA SO'ZNING MOHIYATI 11-14

Pulatova Asal

O'ZBEK XALQI MENTALITETIDAGI ASOSIY QADRIYATLARNI
IFODALOVCHI KONSEPTLAR 15-18

Burxonova Gulmira

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI
SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI 19-23

Nosirova Shoiraxon

INGLIZ HARBIY DISKURSINING GRAMMATIK VA PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI: BUYRUQBOZLIK, RASMIYLIK VA
KODLASHGAN TIL UNSURLARINING TAHLILI 24-28

Султонова Лолахон

ПОЭТИКА УМОЛЧАНИЯ И ВЫТЕСНЕНИЯ В СТРУКТУРЕ ТРАВМАТИЧЕСКОЙ
ПАМЯТИ (НА МАТЕРИАЛЕ РОМАНА КАДЗУО ИСИГУРО "ОСТАТОК ДНЯ") 29-33

YURIDIK FANLAR

Kalimbetov Nesip

DAVLAT HISOBIDAN YURIDIK YORDAM OLUVCHI SUB'EKTLAR DOIRASINI
KENGAYTIRISHNING INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHDAGI AHAMIYATI 34-38

PEDAGOGIKA FANLARI

Tojiboyeva Shohistaxon

LINGVODIDAKTIK RESURSLAR ASOSIDA TANQIDIY FIKR YURITISHNI
RIVOJLANTIRISH MODEL I 39-41

Баймуратова Ирина

ПРИМЕНЕНИЕ ИИ В ОБУЧЕНИИ ПРЕДМЕТА ЯДЕРНАЯ МЕДИЦИНА И
РАДИАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ 42-44

Zokirova Ma'suma

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KRITIK FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI 45-49

Maxkamova Husnida

XAVFSIZ RIVOJLANISH MUHITI' TUSHUNCHASINING PEDAGOGIK
FENOMEN SIFATIDAGI TALQINI 50-54

Qo'chqarov Bahodir

MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVASION
TEKNOLOGIYALARNING AHAMIYATI 55-60

Adasheva Xilola

TALABALARNING SOG'LOM TURMUSH TARZIDA YASHASHIGA
ME'YOR VA ME'YORDAN OG'ISHNING HOLATI 61-66

Abduqahhorova Mahliyo

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI T

AKOMILLASHTIRISHNING AMALIY-USLUBIY ASOSLARI 67-70

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDA MILLIY-MADANIY LEKSIKA VA REALIYALARDAGI SOTSIOMADANIY KOMPONENTLARNING QIYOSIY TAHLILI

Burxonova Gulmira Olimjon qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti tadqiqotchisi

E-mail: burxonovagulmira795@gmail.com

Tel: +998999729029

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy leksika hamda realiyalarda aks etgan sotsiomadaniy komponentlarning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot jarayonida har ikki tilga xos bo'lgan realiyalar misolida ularning semantik, lingvomadaniy va pragmatik xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, realiyalarning tarjima jarayonidagi muammolari va ularni adekvat ifodalash usullari ham ko'rib chiqiladi. Natijada, o'zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy birliklarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi hamda ularning til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettirishdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar. milliy-madaniy leksika, realiya, sotsiomadaniy komponent, qiyosiy tahlil, lingvomadaniyat, tarjima, semantika, pragmatika.

COMPARATIVE ANALYSIS OF SOCIOCULTURAL COMPONENTS IN NATIONAL-CULTURAL VOCABULARY AND REALIA IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Burxonova Gulmira Olimjon qizi

Researcher at Is'hoqxon Ibrat Namangan State Institute of Foreign Languages

Annotation. This article presents a comparative analysis of sociocultural components in national-cultural vocabulary and realia in the Uzbek and English languages. The study examines realia specific to both languages and analyzes their semantic, linguocultural, and pragmatic features. Particular attention is given to the challenges of translating realia and the strategies for their adequate rendering. The findings reveal similarities and differences between national-cultural units in the two languages and highlight their role in reflecting the relationship between language and culture.

Keywords: national-cultural vocabulary, realia, sociocultural component, comparative analysis, linguoculturology, translation, semantics, pragmatics.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i7/n04>

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy-madaniy leksika va realiyalar har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, urf-odatlarini hamda mentalitetini o'zida aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, turli tillardagi realiyalarni qiyosiy jihatdan o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarjimashunoslik va lingvomadaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy leksika hamda realiyalardagi sotsiomadaniy komponentlarni o'rganishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, **qiyosiy-tahliliy metod** asosiy metod sifatida qo'llanildi. Ushbu metod yordamida o'zbek va ingliz tillariga xos realiyalar o'zaro solishtirilib, ularning umumiy va farqli

jihatlarini aniqlandi. Bu jarayonda realiyalarning semantik tuzilishi, funksional xususiyatlari va qo'llanish konteksti tahlil qilindi.

Adabiyotlar tahlili

Milliy-madaniy leksika va realiyalar masalasi tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik hamda sotsiolingvistika doirasida keng o'rganilgan. Xususan, realiya tushunchasi va uning tarjimadagi o'rni ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Vinogradov (2001) realiyalarni lingvomadaniy birlik sifatida baholab, ularning milliy koloritni ifodalashdagi roliga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, realiyalar matnda nafaqat informativ, balki ekspressiv-estetik funksiyani ham bajaradi. Ingliz tilshunosligida Newmark (1988) realiyalarni "cultural words" sifatida ko'rib chiqib, ularni tarjima qilishda kommunikativ va semantik yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligini ta'kidlaydi. U madaniy birliklarni tarjima qilishda kontekst va maqsadli auditoriyaning ahamiyatini alohida qayd etadi. Nida (1964) esa dinamik ekvivalentlik nazariyasi orqali realiyalarni tarjima qilishda mazmun va ta'sirni saqlab qolish muhimligini asoslab beradi. O'zbek tilshunosligida ham milliy-madaniy leksika va realiyalar masalasi muhim tadqiqot obyekti sifatida qaraladi. Jumladan, Rahmatullayev, Yo'ldoshev, Mahmudov kabi olimlar o'zbek tilidagi milliy birliklarning semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilganlar. Ular o'zbek tilidagi realiyalar xalqning turmush tarzi, urf-odatlarini, an'analari va mentalitetini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligini ta'kidlaydilar.

Natija

Til madaniyatning o'zagini tashkil etadi. Har bir xalqning badiiy adabiyotida xalqning urf-odatlarini, e'tiqodini, qadriyatlarini va kundalik turmush tarzi aks etgan bo'lib, bu hol **realiyalar** vositasida namoyon bo'ladi. Ingliz va o'zbek adabiyotlaridagi realiyalarni solishtirish ularning **sotsioma'daniy o'xshashliklarini** ochib beradi. Misol qilib wedding – to'y, bride – kelin, hospitality – mehmondo'stlik, harvest festival – hosil bayrami, tea – choy, bread – non kabi so'zlarni keltirish mumkin. Ikkala til madaniyatida **ramziy ahamiyat** (masalan, bread va non – hayot manbai sifatida tahlil qilish o'rinlidir. Pragmatik funksiyalar nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, "mehmonni choy bilan kutib olish", "nonni qadrlash" kabilar har ikkala madaniyatda mavjud. Shu o'rinda adabiy parchalar orqali tahlilimizni ifodalash o'rinli bo'ladi.

Choyxona-Pub realiyasi

O'zbek sotsiomadaniy kontekstida:

Manba: Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 2014. – 287-bet
"Choyxonada o'tirganlar gurgung qilib vaqt o'tkazishardi."

Ingliz sotsiomadaniy kontekstida:

Manba: Dickens Ch. The Pickwick Papers. – London: Chapman & Hall, 1837.
"They sat in the public house, where the talk was lively and the ale abundant."

Tahlil. O'zbek xalqida choyxona so'zi aynan an'anaviy ierarxiyani saqlaydi va shu bilan birga o'zbek tilidagi "choyxona" realiyasi an'anaviy muloqot, ijtimoiy yaqinlik va kollektivlikni ifodalasa, ingliz tilidagi "pub/inn" realiyasi erkin ijtimoiy muhit va individual kommunikativ xulqni aks ettiradi. **Aynan o'zbek sotsial guruxlari orasida ham ushbu realiya turlicha talqin qilinadi. Erkaklar uchun choyxona bu- nafaqat ovqatlanish, choy ichish joyi balki gurgunglashish vaqtichoqlik qilish uchun qulay makondir va ko'proq erkaklar tilida qo'llaniladi. Ayollar tilida esa nisbatan kamroq va shunchaki ovqatlanish ma'nosi bilan chegaralanadi. Ingliz madaniyatiga xos bo'lgan "Pub" realiyasi bilan solishtirsak, mazkur**

realiyalar bir xil kommunikativ vazifani bajargan bo'lsa-da, ularning konseptual modeli farqli. Zero, Wierzbicka yozadi: "Meanings can be described using simple, universal semantic primitives shared across languages"

"Navro'z" ↔ "Christmas" realiyasi

O'zbek sotsiomadabiy kontekstida:

Manba. Said Ahmad. "Ufq" – Toshkent: Sharq, 2005

"Navro'z bayrami arafasida qishloq yana jonlanib ketdi."

Manba. Bobur Z.M. "Boburnoma" – Toshkent: Fan, 2002

"Navro'z kuni bog'larda sayr qilinib, bazmlar uyushtirildi."

Manba. Navoiy A. "Xamsa" (xususan "Hayrat ul-abror") – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2011

"Navro'z ayyomi kelib, olamga fayz-u safo yoyildi."

"Navro'z" Abdulla Qodiriy va Cho'lpon asarlarida ham e'tirof etilishiga qaramasdan aynan "Navro'z" sifatida emas balki ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri nomi bilan keng sahna sifatida berilmaydi, balki umumiy bayram, bahor, sayil kontekstida ifodalanadi.

Ingliz sotsiomadabiy kontekstida

Manba. Dickens Ch. A Christmas Carol. – London: Chapman & Hall, 1843.

"A merry Christmas, uncle! God save you!"

Tahlil. "Navro'z va "Christmas" realiyalarini o'zaro qiyoslaydigan bo'lsak, ikki realiyalar ham milliy madaniyatni ifoda etadigan bayramlardir. Navro'z bahor fasli bilan bog'liq, yilning yangi boshlanishi, ijtimoiy uyg'onish: butun qishloq yoki shahar aholisi bayramga birga tayyorgarlik ko'radi va albatta marosimiy va folklor elementlari mavjud (sumalak tayyorlash, dasturxon yozish, kelin salom kabilar. Bundan tashqari ushbu realiya kollektiv konseptini bildiradi deyish mumkin. Chunki bayram shaxsdan tashqari butun jamiyatni birlashtiradi. Christmas esa rivojlangan diniy bayram: Iso Masihning tug'ilgan kuni. Odatda oilaviy doirada nishonlanadi, sovg'a almashish, oilaviy dasturxon, ruhiy qadriyatlar. Ammo Navro'z bayramidan farqli o'laroq, individualistik-kichik guruh konsepti: bayram asosan oilaga bog'liq, ijtimoiy keng qatlamlar bilan cheklangan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ingliz madaniyatida bayramlar ko'proq oilaviy va diniy, o'zbek madaniyatida esa bayramlar jamiyatni birlashtiruvchi va folklor-marosimiy xarakterga ega. Shu bilan ikki madaniyat realiyalari qiyosiy tarzda ijtimoiy-kollektiv va oilaviy-individual konseptlar orqali farqlanadi.

Oqsoqol - elder realiyasi

Manba: Oybek M. Navoiy. – Toshkent: «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI, 2004. – 353-bet

Ko'chada Arslonqulni baland bo'yli zabardast chol — mahalla oqsoqoli qarshiladi. Yigit qo'lini qovushtirib, salom berdi. Oqsoqol shamshod hassasini yerga urib, odaticha, dastlab Arslonqulni koyidi. Unga bomdod namozini ko'pincha kanda qilishini eslatdi.

Manba:

Cho'lpon A. Kecha va kunduz. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2012. – 198-bet

"Qishloq oqsoqoli bu ishga aralashib, yoshlarni tartibga chaqirdi."

Mazkur parchada "oqsoqol" leksemasi oddiy yosh belgisi emas, balki ijtimoiy-institutsional realiya sifatida qo'llangan.

"oqsoqollar yig'ilishi" → kollektiv qaror qabul qilish mexanizmi

“maslahat bilan hal qilmoq” → an'anaviy boshqaruv modeli

Aynan keltirilgan kontekst oqsoqol realiyasi orqali nafaqat yoshi katta (elder) odamlarni nazarda tutmoqda, balki, o'zbek millatiga xos ijtimoiy lider, axloqiy autoritet va an'anaviy sud funksiyasini bajaruvchi shaxslarga ham ishora etmoqda desak yangilashmagan bo'lamiz.

Ingliz sotsiomadaniyatida muqobil birlik : “elder”

Manba: Golding W. Lord of the Flies. – London: Faber & Faber, 1954.

“The older boys tried to keep order among the younger ones.”

Tahlil. Ushbu ingliz sotsiologiyasidagi elder realiyasi- yoshga nisbatan beriladi. Bu so'zda hech qanday maqom yo'q. “O'zbek lingvokulturasida ‘oqsoqol’ realiyasi ijtimoiy boshqaruv, axloqiy nazorat va kollektiv qadriyatlarni ifodalovchi muhim lingvokulturologik birlik hisoblanadi. Ingliz tilidagi ‘elder’ esa mazkur konseptning faqat yosh komponentini ifodalaydi, biroq institutsional va normativ funksiyani to'liq qamrab olmaydi. Shu sababli ular o'rtasida to'liq ekvivalentlik emas, balki qisman muvofiqlik kuzatiladi.”

Bread ↔ Non. Realiyasi.

O'zbek sotsiomadaniy konteksida.

Manba. Cho'lpon .A. “Kecha va kunduz”. Toshkent «Янги аср авлоди» 2011.-281-bet

Uy xo'jayiniga, non-tuzini ichgan kishisiga qo'l ko'targan odam qanday odam bo'ladi? -deb so'zlanadi.

Berilgan misol shuni ko'rsatadiki, o'zbek adabiy matnlarida “non” konsepti milliy mentalitet, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. “non-tuz” birikmasi sodiqlik, minnatdorlik va ijtimoiy burch ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda “non” nafaqat oziq-ovqat, balki insonlar o'rtasidagi axloqiy majburiyatni belgilovchi konseptual birlik deb aytish mumkin.

Manba. Oybek. “Navoiy” (316-bet)

Xursandlikdan uchib qo'ngan Arslonqul dasturxon yozdi. Dildor tong qorong'isida hafsala bilan yopgan nonlami qalashtirib tashladi. Nonni ushatib: «Marha- mat», derkan, Zayniddinning kechikkanligiga taassufi- ni bildirdi.(316-bet)

Bu o'rinda “non” mehmondo'stlik, samimiyat va o'zbekona urf-odatlarining ajralmas qismi sifatida tasvirlanadi. Nonni ushatib uzatish marosimi milliy etiketning belgisi bo'lib, bu orqali hurmat va iliqlik ifodalanadi.

Nonko'r ota-o'g'ilni, ham Majididdinni ushbu soatda hibs qilmoq kerak.(406-bet)

Shuningdek yuqoridagi “nonko'r” leksemasi orqali non bergan kishiga nisbatan noshukurlik qilgan shaxs keskin salbiy baholanadi. Bu holat “non”ning qadriyat sifatidagi semantik kengayishini yaqqol ifodalaydi.

Xurosondan non-nasibamiz uzilibdi-da! — o'tiring, qochmoqchisizmi? — kinoyali kulgi bilan tikildi Majididdin.(112- bet)

Yana bir birikma “non-nasiba” birikmasi taqdir, rizq va hayotiy imkoniyatlar bilan bog'liq metaforik ma'noni anglatadi. Demak, o'zbek tilida “non” konsepti nafaqat moddiy, balki ma'naviy va falsafiy kategoriyaga aylangan deyish judayam o'rinli bo'ladi.

Ingliz sotsiomadaniy konteksida

“She gave me a piece of bread and butter, saying nothing, but it meant kindness.” (Charles Dickens, “Great Expectations”, 1861)

Tahlil. Bu yerda bread bevosita oziq-ovqat bo'lishi bilan birga, kontekstual ravishda mehr, g'amxo'rlik va sukut orqali ifodalangan iliq munosabat ramziga aylanadi. Biroq ingliz

tilidagi "bread" leksemasining semantik maydoni o'zbek tilidagi "non"ga nisbatan torroq bo'lib, u ko'proq individual hissiy holat va konkret vaziyat bilan chegaralanadi.

Qiyosiy tahlil. Xulosa qilib aytganda, har ikkala tilda ham "non/bread" konsepti inson hayotida muhim o'rin tutadi, biroq o'zbek madaniyatida u milliy identitet va axloqiy me'yorlarning markaziy elementi sifatida kengroq semantik va pragmatik yuklamaga ega. Ingliz madaniyatida esa bu tushuncha nisbatan torroq, lekin chuqur emotsional va kontekstual ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

O'zbek va ingliz tillaridagi milliy-madaniy leksika hamda realiyalarni qiyosiy o'rganish natijasida ularning til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar ekanligi aniqlandi. Tadqiqot davomida realiyalar har ikki til tizimida nafaqat nominativ, balki sotsiomadaniy, ekspressiv va pragmatik funksiyalarni ham bajarishi ilmiy asoslandi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilidagi realiyalar ko'proq an'anaviy turmush tarzi, urf-odatlar va ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lsa, ingliz tilidagi realiyalar esa ijtimoiy institutlar, tarixiy jarayonlar va zamonaviy madaniyat elementlarini aks ettirishga moyildir. Shu bilan birga, har ikkala tilda ham realiyalar milliy identitetni ifodalovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. — М.: Международные отношения, 1980.
2. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. — М.: Высшая школа, 2001. 144В
3. Newmark P. A Textbook of Translation. — London: Prentice Hall, 1988. 23В
4. Nida E.A. Toward a Science of Translating. — Leiden: Brill, 1964. 11-17В
5. Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. — London: Oxford University Press, 1965.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. — Тошкент: Фан, 2006. 25-28В
7. Маҳмудов Н. Тил ва маданият. — Тошкент: Ўзбекистон, 2010. 100В
8. Йўлдошев Б. Лингвомаданиятшунослик асослари. — Тошкент, 2015. 78В
9. Komilov N. Tarjimashunoslik asoslari. — Toshkent: Fan, 2012. 83В
10. Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. — London: Edward Arnold, 1978. 26-32 В
11. Oybek. "Navoiy" «SHARQ» NASHRIYOT-MATBA'A AKSIYADORLIK kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent - 200
12. Cho'lpon . A. "Kecha va kunduz". Toshkent «Yangi asr avlodi » 2011.-281В
13. Golding W. Lord of the Flies. – London: Faber & Faber, 1954. 130В

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2026-yil, aprel

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 7-son (aprel, 2026-yil). – 71 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 10-aprel.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.